

MADANIY DAM OLIISH TADBIRLARINI TAYYORLASH JARAYONINING O‘ZIGA XOSLIGI



Gulshira Saparbaeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

dotsenti

Madaniyat faoliyati kafedrası mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy dam olish tadbirlarini tayyorlash jarayonining nazariy va amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, madaniy dam olish tadbirlarini rejalashtirish, ssenariyning puxtaligi va tashkiliy ishlarning o‘ziga xos bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadbir tayyorlash jarayonida auditoriya ehtiyojlarini o‘rganish, ijodiy innovatsiyalarni qo‘llash masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, soha mutaxassislarining kasbiy mahorati, ularning metodik tayyorgarligining ahamiyatiga ham alohida urg‘u beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniy dam olish, tadbir tayyorlash jarayoni, ssenariy, ijodiy yondashuv, tashkiliy bosqichlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретическое и практическое значение процесса подготовки культурно-досуговых мероприятий. Анализируются этапы планирования культурных мероприятий, тщательная разработка сценария и особенности организационной работы. Особое внимание уделяется изучению потребностей аудитории, применению творческих инноваций, а также профессиональному мастерству специалистов в данной сфере и значению их методической подготовки.

Ключевые слова: культурный досуг, процесс подготовки мероприятий, сценарий, творческий подход, организационные этапы.

Abstract. This article explores the theoretical and practical significance of the process of preparing cultural and leisure events. It analyzes the stages of event planning, the thorough development of the script, and the specific features of organizational work. Special attention is given to studying audience needs, implementing creative innovations, and emphasizing the professional skills of specialists in the field as well as the importance of their methodological training.

Keywords: cultural leisure, event preparation process, script, creative approach, organizational stages.

Kirish.

Madaniy dam olish tadbirlarini tayyorlash jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etuvchi ijtimoiy-madaniy faoliyat hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat badiiy estetik talablarni, balki auditoriya ehtiyojlarini, shaxsiy qiziqishlarni, yosh farqlarni, shuningdek, mintaqaviy, madaniy va an’anaviy xususiyatlarni ham hisobga olgan holda olib boriladi. Madaniy tadbirlarni tayyorlash bosqichida rejalashtirish, g‘oya konsepsiyasini ishlab chiqish, ishtirokchilarni tanlash, ssenariy yozish, texnik va tashkiliy jihatlarini ta’minlash kabi bir qator tarkibiy elementlar o‘zaro uyg‘unlikda harakat qilishi zarur.

Bugungi kunda madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etish jarayoni tubdan yangilanmoqda. Bu yangilanish, avvalo, jamiyat hayotidagi axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta’sirining ortib

borishi, yoshlar tafakkurining o'zgarishi va auditoriyaning did va ehtiyojlarining diversifikatsiyalanishi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, raqamli madaniyat sharoitida madaniy tadbirlarni rejalashtirish, mazmun jihatdan boyitish, unga xalqni ishontirish va auditoriyaga tadbirning maqsadini yetkazishda mutlaqo yangi shakl va yondashuvlar zarur. Shunday ekan, madaniy dam olish tadbirlarini tayyorlashda ijodkorlik, zamonaviylik, ilmiylik va metodik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadbirlar shunchaki ommani yig'ishga xizmat qilmay, ularning madaniy tafakkurini yuksaltirish, ma'naviy tafakkurining o'sishini ta'minlashda ijodiy vositachilik rolini bajaradi. Shu boisdan har bir tadbirning kontseptsiyasi chuqur o'ylangan, dolzarb g'oya asosida qurilgan va badiiy ifodasi jihatidan mukammal bo'lishi lozim. Madaniy tadbirlarning badiiy-estetik sifati bir qator muhim omillarga tayanadi, ular orasida tashkilotchilarning professional darajasi, sahnalashtirish texnologiyasi, ssenariy kompozitsiyasi va rejalashtirish bosqichidagi metodik yondashuvlar alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham madaniy tadbirlarning badiiy-estetik sifati bu birgina ijodiy element emas, balki puxta o'ylangan, metodik yondashuv bilan tashkil etilgan kompleks tizimdir. Tashkilotchilarning professional yondashuvi, sahnalashtirishdagi texnologik yangiliklar, ssenariyning mazmunan boyligi va rejalashtirishdagi aniqlik – bularning barchasi tomoshabinlarda qiziqish uyg'otadi, ularning ma'naviy-intellektual o'sishiga ham xizmat qiladi. Shu boisdan har bir bosqichga ilmiy yondashuv asosida qarash va ularni bir butun madaniy tizim sifatida uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu tamoyillar asosida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'zining maqsadiga erisha oladi – ya'ni tomoshabinlarda hissiy kechinma uyg'otadi, u bilan ruhiy va g'oyaviy dialogga kiradi.

Olimlar A. Umarov va U. Qoraboyevlar madaniy dam olish tadbirlarining o'ziga xos 5 ta xususiyatlarini ta'kidlab o'tishgan. Jumladan:

Birinchi xususiyat shundan iboratki, ommaviy tadbirlar kundalik hayotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Agar san'at asarlari real "birinchi dunyo"ni badiiylashtirish asosida "ikkinchi dunyo"ni vujudga keltirsa, madaniy ish shakllari esa kundalik hayotning o'zida muhim tadbir sifatida uyushtiriladi.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, madaniy tadbirlar odatda bir marta tashkil etilib, bir marta namoyish etiladi. Agar teatr spektakllari yoki kinofilmlar tayyorlangandan so'ng ko'p marotaba namoyish qilinishi mumkin bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tadbirlar odatda takroran qo'yilmaydi. Chunki ular muayyan va muhim sanalarga bag'ishlanadi va faqat belgilangan kunda (yoki uning arafasida) tashkillashtiriladi.

Uchinchi xususiyat – ommaviy tadbirlar asosan mahalliy aholi uchun, ularning real hayotidan olingan manbalar asosida tuziladi. Tadbirlar aks ettiradigan materiallar muayyan muassasaga xizmat qilayotgan konkret jamoa, mahalla, korxona yoki tuman hayotidan olinadi. Tadbirlarning bosh qahramoni sifatida odatda o'sha hududda mehnat qilayotgan, mahalliy aholi orasida hurmatga sazovor shaxslar tanlanadi.

To'rtinchi xususiyat shundan iboratki, madaniy-ommaviy tadbirlar o'zida ko'plab ta'sirchan vositalarni sintezlashtiradi. Bunday tadbirlarda musiqa, teatr, raqs, notiqlik san'ati kabi elementlar umumiy mazmunni samarali yoritish uchun uyg'un holda qo'llaniladi. Bu vositalar mantiqan bog'langan, mazmun jihatdan bir-birini to'ldiradigan shaklda qo'llanilib, tadbirning badiiy-estetik darajasini oshiradi.

Beshinchi va muhim xususiyat – bu ommani tadbir ishtirokchisiga aylantirishga intilishdir. Joylarda uyushtiriladigan tadbirlar omma uchun emas, balki ommaning bevosita ishtirokida o'tadi. Teatr, kino yoki televideniye mahsulotlarida asar ishtirokchilari bilan tomoshabinlar o'rtasida ko'rinmas "devor" mavjud bo'lsa, madaniy-ommaviy tadbirlarda bunday to'siq yo'q. Unda omma faqat tomoshabin emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Tadbirda mahalliy aholi

voqealarga o'z munosabati, fikr va takliflarini bildiruvchi, muayyan ijtimoiy holatni ifodalovchi faol subyektga aylanadi[1].

Yuqorida bayon etilgan A. Umarov va U. Qoraboyevlar tomonidan ilgari surilgan beshta asosiy xususiyat madaniy dam olish (madaniy-ommaviy) tadbirlarining zamonaviy ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Bu xususiyatlar madaniy tadbirlarni boshqa san'at va axborot-kommunikatsiya shakllaridan ajratib turuvchi kontseptual mezonlar sifatida qaralishi mumkin. Madaniy tadbir har doim muayyan badiiy g'oya atrofida quriladi. Bu g'oya – tomoshabinga yetkazilmoqchi bo'lgan asosiy mazmun, asosiy fikr, g'oyaviy yo'nalishdir. Badiiy g'oya nafaqat ssenariy asosini, balki dekoratsiya, musiqa, liboslar, harakat va yoritish kabi barcha sahna elementlarini belgilovchi yadro vazifasini bajaradi. Ssenariy konsepsiyasi esa bu g'oyani sahna tilida qanday ifoda etishni belgilovchi rejadir. Zamonaviy yondashuvda ssenariy matni statik matn emas, balki tomoshabin bilan interaktiv aloqada bo'ladigan "tirik matn"ga aylanmoqda. Rejissura jarayonining muhim bosqichi – bu tadbirning kompozitsion tuzilmasini shakllantirishdir. Kompozitsiya deganda, badiiy elementlarning sahnaviy tizimda bir butun g'oyaviy oqim asosida joylashuvi tushuniladi[2].

Har bir madaniy tadbir odatda uch asosiy qismdan iborat bo'ladi: kirish, asosiy qism va yakun. Madaniy tadbir rejissurasi dramatik qurilma tamoyillariga asoslanadi. Bu degani – har qanday madaniy-badiiy chiqish voqeaviy rivojlanishga ega bo'lishi kerak. Tadbirda voqealar, obrazlar yoki sahna harakatlari bir maromda emas, balki muayyan dramatik kuchlanish, kutilmagan burilishlar, emotsional o'sish orqali tomoshabinda ichki reaksiyani uyg'otuvchi tarzda tashkil etiladi.

Dramatik qurilmasi kuchli bo'lgan madaniy tadbirlar har doim tomoshabinni o'ziga tortadi va maqsadli g'oyani samarali yetkazadi. Shunday qilib, badiiy rejissura, ssenariy konsepsiyasi va dramatik qurilma o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan komponentlar sifatida qaraladi. Ularning uyg'unligi madaniy tadbirga estetik, tarbiyaviy va g'oyaviy mukammallik baxsh etadi. Aynan shu tamoyillar asosida yaratilgan bayram dasturlari nafaqat ko'ngilochar funktsiyani, balki ijtimoiy-ma'naviy missiyani bajaruvchi kuchli madaniy vosita sifatida maydonga chiqadi.

Sahnani bezash, turli effektlar yordamida tomoshaviylikka erishish, ovoz, musiqa va tovushlarni yetkazish, fonogramma yozish, minidisk, kompyuter, turli holatlarda tasvirga olish uchun qo'llaniladigan televizion vositalar, kerakli effektlarni beruvchi chiroqlar, pirotexnik vositalardan foydalanish kabi texnik vositalar hozirgi kunda bayram tadbirlarida ijodiy jarayon bilan bir qatorda amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda ijodiy va texnik jarayonlarni bir-biridan ajratgan holda qo'llash mumkin emas. Aksincha, ular o'rtasida uyg'unlikka erishishga, badiiy ifoda va texnologik imkoniyatlarni bir butun holda uyg'unlashtirishga intilish lozim[3].

Shuningdek, interaktiv texnologiyalardan foydalanish yosh auditoriya bilan samarali kommunikatsion aloqani ta'minlaydi. Bugungi kun yosh avlodi raqamli vositalar yordamida fikrlaydi, axborot oladi va o'zining madaniy ehtiyojlarini shu asosda shakllantiradi. Madaniy tadbirlarning muhim jihatlaridan yana biri – bu ularning tarbiyaviy va ma'naviy yo'nalganligidir. Har qanday madaniy-ma'rifiy dasturda milliy qadriyatlarni, tarixiy xotirani, umuminsoniy axloqiy me'yorlarni targ'ib etuvchi mazmun bo'lishi lozim. Tadbirlar orqali tomoshabinga ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik ong, Vatanga sadoqat, madaniy merosga hurmat kabi g'oyalarni yetkazilishi kerak. Bu esa tashkiliy va badiiy jamoaning pedagogik bilim va kompetensiyasini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan olib qarganda, har qanday madaniy-ma'rifiy dastur mazmunan chuqur, tarbiyaviy jihatdan boy, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan bo'lishi shart.

Bu esa bunday tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va sahnalashtirishda ishtirok etuvchi jamoaning yuksak ma'naviy darajasini, pedagogik bilim va kompetensiyasini talab qiladi.

Madaniy tadbirlarning asosiy funksiyalaridan biri – bu auditoriyaga ijtimoiy, madaniy va axloqiy g'oyalarni yetkazishdan iborat. Bu kabi g'oyalar o'z aksini topgan madaniy tadbirlar ko'proq interaktiv, tomoshabinni faol fikrlashga chorlaydigan, hissiy jihatdan boy shakllarda amalga oshirilganda samaradorlik yanada ortadi. Chunki auditoriyani faqat tomoshabin sifatida emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy dialog ishtirokchisi sifatida jalb etish bugungi kunning dolzarb talablaridandir. Madaniy tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishda tashkiliy va badiiy jamoaning roli beqiyosdir. Bu jamoa tarkibiga rejissyor, ssenariy muallifi, aktyorlar, sahna bezakchilari, musiqachilar, texnik xodimlar va eng muhimi, pedagogik ko'nikmaga ega bo'lgan metodistlar kiradi. Aynan metodist va rejissyorning o'zaro hamkorligi natijasida dastur nafaqat estetik jihatdan mukammal, balki ma'naviy jihatdan ham chuqur bo'lishi ta'minlanadi[4].

Madaniy tadbirlar nafaqat umumiy ma'naviy ko'nikmalarni shakllantirish, balki shaxsiy dunyoqarash, hissiy-intellektual rivojlanish, axloqiy qadriyatlar tizimini mustahkamlash vositasidir. Ayniqsa, “Mustaqillik”, “Navro'z”, “Xotira va qadrlash” va “Vatan himoyachilari kuni” kabi tadbirlarda individual hissiyotlar – g'urur, hurmat, minnatdorlik, mehr kabi ichki kechinmalar orqali maqsadli tarbiyaviy ta'sirga erishiladi. Bu holatda, madaniy tadbirlar bolalar va o'smirlar uchun ijtimoiy-pedagogik maydonga aylanadi. Ushbu bayram tadbirlari orqali shaxsda tarixiy merosga hurmat, milliy xotira va vatanparvarlik g'oyasi izchil tarzda shakllanadi. Masalan, madaniy tadbir davomida urush faxriylari, harbiy xizmatchilar yoki ularning oila a'zolari bilan ochiq suhbatlar, interaktiv sahna chiqishlari, videomontajlar orqali nafaqat ko'ngilochar, balki ijtimoiy-angloviy komponent ham ta'minlanadi. Bu esa yosh avlodda “men ham bu qadriyatlar davomchisiman” degan ijtimoiy identitetni mustahkamlab boradi.

Bundan tashqari, bu bayramlar orqali o'tkaziladigan madaniy tadbirlar metodik asoslar bilan boyitilsa tarbiyaviy maqsadlar oldindan aniqlansa, baholash mezonlari belgilansa, tadbir yakunida tahlil va mulohazalar o'tkazilsa ular haqiqiy ta'limiy resursga aylanadi. Tadbirlarni tashkil etishning metodik bosqichlari – kontseptual rejalashtirish, ssenariy tuzish, ijodiy guruh bilan ishlash, sahnalashtirish, texnik va texnologik ta'minot, auditoriyaviy tahlil – bularning har biri alohida mas'uliyat va yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa, auditoriyaning yosh, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari hisobga olinishi, ularning madaniy ehtiyojlari chuqur tahlil qilinishi lozim.

Shuning uchun ham, bugungi kunda madaniy dam olish tadbirlarini tayyorlash jarayoni – bu oddiy tashkilotchilik emas, balki kompleks ijtimoiy-madaniy faoliyat bo'lib, unda san'at, texnologiya, pedagogika, sotsiologiya, kommunikatsiya va boshqa ko'plab sohalar o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritadi. Har bir madaniy tadbir ijodiy, ma'naviy va ijtimoiy kommunikatsiya shaklidir. Shu boisdan, ularni tayyorlash va tashkil etishda zamonaviy yondashuv, ilmiy asoslanganlik, estetik mukammallik va metodik chuqurlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, madaniy dam olish tadbirlarini tayyorlash jarayonini chuqur o'rganish, ilmiy asoslash va amaliy jihatdan takomillashtirish – zamonaviy madaniyatning strategik vazifalaridan biri bo'lib, u inson salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda va milliy madaniyatni asrab-avaylashda muhim omil sifatida e'tirof etilishi zarur.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Umarov A., Qoraboyev U. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. – Toshkent.: Donishmand ziyosi nashriyoti, 2023. 216 b.
2. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent.: Aloqachi nashriyoti, 2008. 424 b.

3. Rustamov V. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 192 b.
4. Опарина Н. Сценарно-режиссерские основы культурно-досуговых программ. Москва.: ВЛАДОС, 2020. 247 ст.
5. Abatbaevna, S. G., & Nazarbaevich, Q. A. (2023). History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan.
6. Gulshira Saparbayeva, & Asilbek Qolqanatov (2021). OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA SSENARIYNAVISLIKNING O‘RNI. Oriental Art and Culture, (8), 16-21.
7. Saparbaeva, G. Stages and Prospects for the Development of Cultural Centers in Karakalpakstan. JournalNX, 7(07), 137-141.
8. Сапарбаева, Г. А. (2018). ИСТЕЪДОД ГУЛТОЖИ УСТОЗ. Интернаука, 38, 40.
9. Сапарбаева, Г. А. (2021). SCRIPTWRITING REQUIREMENTS IN THE ORGANIZATION OF CULTURAL EVENTS. Интернаука, (9-2), 47-48.
10. Umarov, Kamoliddin. "NATIONAL AND UNIVERSAL CHARACTERISTICS OF UZBEK THEATER DURING GLOBALIZATION." Research Focus 3.5 (2024): 327-330.
11. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. Oriental Art and Culture, 4(1), 496-502.
12. Umarov, K. (2025). THE ROLE OF UZBEK THEATER IN MODERN SOCIO-CULTURAL PROCESSES. International Journal of Artificial Intelligence, 1(3), 968-972.
13. Umarov, K. X. (2024). O ‘ZBEK TEATRINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOIIY-MADANIY JARAYONLARNING O ‘RNI. Inter education & global study, (7), 459-467.
14. Ганиева, Э. Р. (2018). Трансформация коммуникативной функции кино в эпоху глобализации. In Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования (pp. 8-12).
15. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. International Journal on Integrated Education, 5(4), 286-290.
16. Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.
17. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2, 65-70.
18. QOLQANATOV, A. (2024). MA’DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN. News of UzMU journal, 1(1), 1.
19. M. B. Yuldasheva, & A.N. Qolqanatov (2024). KADRLAR POTENSIALI IJTIMOIIY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI SIFATIDA. Inter education & global study, (8), 58-68.